O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi
№ BD-60220400-1.14
2024 yil “__” _____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ prof. R.I.Xalmuradov
2024 yil “___” _____

“LANDSHAFT ARXEOLOGIYASI” FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220400- Arxeologiya

Fan/modul kodi LA1206	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar Jami: 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy soat (soat)
1.	Landshaft arxeologiyasi	82	98	180

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	Fanning maqsadi - fanning shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o‘rganishdagi ahamiyati, fanning rivojlanish tarixi, tadqiqot ko‘lamining o‘sishi, uning bosqichlari, manbalari va ularning madaniy-tarixiy jarayonlarni o‘rganishdagi ahamiyati haqida bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir. Shuningdek, mazkur fan arxeologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriatni buyurtmachi tashkilot hisoblanuvchi Madaniy meros agentligi Yaxyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutiga dala arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirishda shu soha bo‘yicha to‘la qonli bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga o‘z mazmuni bilan xizmat qiladi. Landshaft arxeologiyasi fanining vazifasi - tabiiy-hududiy va tabiiy-antropogen komplekslarni, ularning faoliyati, tuzilishi, mazmuni, differensiallanish va integratsiya qonuniyatlarini, dinamikasini, o‘tmish jamoalar tomonidan makonning ijtimoiy qo‘llanilishini, ularning o‘z tevaragini anglashini talqin qilishdir.

	Fan mazmuni
	II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**
	Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)
M1	**Landshaft arxeologiyasiga kirish. Fanning predmeti, maqsadi va vazifasi** Landshaft arxeologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanining umumiy tavsifi, fan-texnika, madaniyat, axborotlar o‘zlashtira borish, ularni tabiiy tanlanish nazoratidan chiqishga, jamiyatga bog‘liq bo‘lishiga olib kelgan hodisalar, arxeologik manbalarni o‘rganishda ilmiy jihatdan yondoshish. Fanning yordamchi tarmoqlari, arxeologik fanlar sohasida tutgan o‘rni, arxeologik manbalarining ilmiy - amaliy o‘rganish. Fanning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, o‘ziga xos xususiyatlari. Landshaft arxeologiyasining boshqa fanlar o‘rtasidagi o‘rni. Ilmiy adabiyotlar.

M2	**Landshaftshunoslik fanining rivojlanish tarixi. Landshaft arxeologik meros sifatida** Landshaftshunoslik fan sifatida shakllanishi. Landshaft arxeologiyasi fani manbalari. Yevropada landshaft arxeologiyasi fanining shakllanishi.
M3	**Landshaft tushunchasi va uning tuzilishi. Landshaftning turlari** Landshaftlar haqida tushuncha. Landshaftlarning turlari. Landshaft arxeologiyasini o'rganishning ahamiyati.
M4	**Geoarxeologiya va landshaft arxeologiyasi** Landshaftlar fizik geografiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida. "Landshaft" tushunchasiga ilmiy ta'riflar. Landshaft hosil qiluvchi omil va landshaft komponenti. Energiya o'zgarishi va geofizik jarayonlar Landshaftlar tarqalish xususiyati. Landshaftlarning asosiy tabiiy geografik qismlari. Landshaft dinamikasi. Landshaft evolyutsiyasi va shakllanishi qonuniyatlari. Landshaftlarning xilma-xilligi va tabiiy strukturaviy elementlari.
M5	**Landshaft va tarixiy ekologiya** Landshaft tahlili tarixiy ekologiyaning bir shakli. Landshaftning ekologik ko'rinishi. Ekologik tarix va tarixiy ekologiya: tarixiy tushuntirishga qarshi diaxronik modellashtirish, Tarixiy ekologiyaning yutuqlari.
M6	**Landshaftlarning tabiiy shakllanishi** Landshaftlarning tabiiy shakllanishi. Landshaftlarning barqaror rivojlanishi. Tarixiy ekologiyada tabiat-madaniyat dixotomiyasini kuzatish va tasdiqlash: madaniy bilimlar va o'zgaruvchan landshaftlar. Geoaktiv tuzilmalar (geopatogen va geomantiya zonalari) landshaftning barcha tarkibiy qismlariga anomal ravishda ta'sir ko'rsatadigan landshaftda eng aniq namoyon bo'ladi. Landshaftning tarkibiy qismlari: o'simlik, hayvonot dunyosi, tuproq, havo, suv geotizimlari va litogen asos. Ekotizimlarning hajmi, shakli, soni, turi va fazoviy tashkil etilishiga nisbatan organizmning tarqalishi, energiyasi, materiali va turlari, funksiyasi va o'zgarishi. Geomorfologik jarayonlar, Landshaftning joylashish shakllari.
M7	**Tabiiy va antropogen landshaftlarning xususiyatlari** Landshaftlarning tabiatdan foydalanish obyektlari sifatidagi xususiyatlari Antropogen - tarixiy davrda yerda shakllana boshlagan geografik kompleksning alohida turi. Antropogen va madaniy landshaftlar. Tabiiy-hududiy va tabiiy-antropogen komplekslarni, ularning faoliyati, tuzilishi, mazmuni, differensiatsiya va integratsiya qonuniyatlarini, dinamikasi. Inson hayotiy mahsulotlarning landshaftlarga kirishi natijasida moddalar va energiya aylanishining o'zgarishi, sayyora genofondining buzilishi. Kuchli o'zgargan tabiiy landshaftlar salbiy fikr-mulohazalarning ijobiylardan ustun bo'lishi natijasida tabiiy jarayonlarga beqaror bo'lib qoladi. Tabiiy-antropogen landshaftlar o'zlarining strukturaviy va funksional xilma-xilligi, evolyutsion moslashuvchanlik.

M8	**Tabiiy landshaftlar haqida tushuncha va inson aloqadorligi.** Yer yuzida birinchi odamlarning paydo bo'lishi. Tosh davriga oid tosh industriyalarining taraqqiyoti. Olduvay, ashel, levallua va boshqa paleolit davriga oid industriyalar. Tosh davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
M9	**Landshaft-arxeologik yondashuv. Arxeologik yodgorlik, atrof-muhit va manzara** Landshaftlar madaniy material sifatida. Madaniy landshaftlarning shakllanishi va ularning tarixiy rivojlanishi. Ular alohida yodgorliklar kabi madaniy materialdir. Landshaft tabiiy-iqtisodiy hududiy tizim sifatida (antropogen landshaftlar). Landshaftning tashqi ta'sirlarga barqarorligi, tabiiy resurs salohiyati, landshaft funksiyalari. Inson yashash joylari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va diniy tadbirlarni o'z ichiga olgan turli xil maqsadlar uchun landshaftni tashkil qilish, atrof-muhitni o'zgartirishi bilan bog'liq jarayonlar. Odamlarning atrof-muhit bilan jismoniy va ramziy munosabatlari. Qadimiy aholi manzillari va ular atrofidagi landshaftlar. Geotarixiy xususiyatlarning dinamikasi. Arxeologik yodgorliklarning shakllanish kontekstlari, qadimgi ko'chmanchi chorvadorlarga tegishli mavsumiy turar-joy, qo'nalg'a va qishlovlar kabi arxeologik yodgorliklar. Inson va uning atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirining turli tomonlari, qadimgi jamiyatlar hayotining boshqa jihatlari.
M10	**Antropogen landshaftlar va uning shakllanish omillari** Antropogen va tabiiy landshaftlar. Hududlarda landshaftlarning shakllanishi.Ularning turlari. Antropogen landshaftlarning tasnifi. Landshaftlarning turlari.
M11	**Geografik Axborot Tizimi (GAT). Qadimiy landshaftni virtual tiklash** GIS va qadimiy landshaftni virtual tiklash usullari. Sun'iy yo'ldosh va havodan olingan suratlar, yer usti izlanishlari, topografik modellashtirish. Landshaftdagi yodgorliklarni topish va hujjatlashtirish, ularning tabiiy landshaft komponentlari va bir-biri bilan aloqalarini aniqlash. Tarixiy landshaftlar bo'yicha tadqiqotlarning rivojlanishi tahlili. Tarixdan oldingi muhitni o'rganishning dinamik jarayonlarining boshlanishi, hududiy butun yoki mintaqalar miqyosida aholi punktlari tarixini o'rganish, yangi geografiyaning fazoviy modellarini qo'llash. Inson jamoalari va ularning tabiiy muhiti o'rtasidagi munosabatlar modellarini taqdim etish. Geografik Axborot Tizimining (GIS) mashhurligini keltirish mumkin. GIS ikki turdagi ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi: fazoviy va tavsiflovchi. Arxeologik GIS ma'lumotlarining manbalari xaritalar, rejalar, havo va yer fotosuratlari, sun'iy yo'ldosh tasvirlari yoki havodan 3D skanerlash, shuningdek, geodeziya ma'lumotlari: qazish va noinvaziv tadqiqotlarda qo'llaniladigan tekislash o'lchovlari; arxeologiyada GIS murakkab va ko'p faktorli tahlillar va keng ko'lamli fazoviy statistik ma'lumotlardan foydalanish, uch o'lchovli kompyuter simulyatsiyalarini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lib, buning yordamida o'tgan hodisalar tushuntiriladi; Bundan tashqari, GIS yordamida landshaft tahlili

	arxeologik merosni boshqarish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi
M12	**Shartli o'zgartirilmagan ibtidoiy landshaftlar. Suv havzalarida shakllangan antropogen landshaftlar** Shartli o'zgartirilmagan (ibtidoiylandshaftlar). Ular bevosita inson ta'siriga va xo'jalikdagi faoliyatiga duchor bo'lmagan landshaftlardir. Suv havzalarida shakllangan antropogen landshaftlar tushunchasi. Geotextizimlar faqat kanallar yoki suv omborlardagina emas, balki yirik sanoat obyektlari atrofda ham shakllanishi mumkin.
M13	**O'rta Osiyo arxeologisida landshaft-arxeologik yondashuv (Tog'li Ustrushona ko'chmanchilarining ekologiyasi misolida)** O'rta Osiyo - mintaqaviy iqlim, relef va mavsumiylik. O'rta Osiyo arxeologiyasida shahar va ko'chmanchi jamoalari madaniyati. Shahar va ko'chmanchi jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Tog'li Ustrushona ko'chmanchilari o'rnashuv ekologiyasi. O'rnashuv modeli. Toshbuloq shaharchasida geoarxeologik izlanishlar. Arxeobotanik ma'lumotlar tarixiy manba sifatida. Tog'li Ustrushona ko'chmanchilarining shaharlashuvi - "ko'chmanchi urbanizm". Tog'li Ustrushona Ipak yo'li va yangi tarixiymadaniy bosqich. Tog'li Ustrushonada GAT yondashuvli izlanishlar natijalari.
M14	**Landshaft arxeologiyasining yutuqlari** Landshaft - zamonaviy ilmiy arxeologiya, Zamonaviy Amerika landshaft ekologiyasi (Forman, Godron). Raqamli xaritashunsolikka asoslangan "arxeologik prognoz modeli". Qadimiy biofakt, ekofakt va geofaktlarni o'rganish orqali inson xulq- atvorini tiklash. Aerofotosuratning rivojlanishi arxeologik landshaft tadqiqotlarida qo'llanilishi. Sun'iy yo'ldosh va havodan olingan suratlar, yer usti izlanishlari, topografik modellashtirish, stratigrafik qazishmalar, geomorfologik izlanishlar, paleobotanik, makro va mikrofloratahlillari va yer osti qiliruv texnologiyalari (georadar va magnitometriya usullari). O'rta Osiyo ko'chmanchi chorvadorlari o'tmish madaniyatini o'rganishda landshaft- arxeologik yondashuvni qo'llash yordamida yangi va farqli ma'lumotlar. Fanlararo tadqiqotlar va o'tmishdagi inson muhitini qayta tiklashga hissa qo'shadigan tadqiqotlar.
M15	**O'rta Osiyo hududida shakllangan tarixiy antropogen landshaftlar** O'rta Osiyo hududida shakllangan tarixiy antropogen landshaftlar. Tarixiy jaroyonlar ta'sirida manzilgohlar, qishloqlar, shaharlarning tashkil topishi va rivojlanishi.
M16	**Arxeologiya va landshaft arxeologiyasida dala tadqiqotlar olib borish usullari va texnikasi** Landshaft arxeologiyasi manbalari. Dastlabki arxeologik tadqiqotlari. Arxeologiyk tadqiqot ishlari ko'lamining kengayishi.
M17	**Landshaft arxeologiyasida raqamli texnikaning o'rni, uning hozirgi va kelajakdagi roli** Raqamli texnologiyalar. Landshaft arxeologiyasida raqamli texnikalarning

	o‘rni va ahamiyati.
M18	**Landshaft arxeologiyasi faning kelajagi** Arxeologiya va arxeologik tadqiqotlarda landshaft arxeologiyasining o‘rni. Landshaft arxeologiyasining kelajakdagi istiqbollari.

III. Mashg‘ulotlar shakli: Amaliy (A)		**Soati**
A1	Arxeologiya, landshaft arxeologiyasida dala tadqiqotlari va uning ahamiyati.	2
A2	Arxeologik dala tadqiqotlarini olib borish tartibi, uni qonuniylashtirish.	2
A3	Landshaftlarda qidiruv va qazuv ishlarini olib borish.	2
A4	Landshaft tadqiqotlarida zamonaviy texnikalardan foydalanishning ahamiyati.	2
A5	Ilmiy ishlar va hisobotlar tayyorlash.	2

IV. Mashg‘ulotlar shakli: Seminar (S)		**Soati**
S1	Landshaft va tarixiy ekologiya	2
S2	Landshaftning ekologik ko‘rinishi	2
S3	Landshaftlarning tabiiy shakllanishi. Landshaftlarning barqaror rivojlanishi	2
S4	Tabiiy va antropogen landshaftlarning xususiyatlari	2
S5	Landshaftlarning tabiatdan foydalanish ob'ektlari sifatidagi xususiyatlari	2
S6	Antropogen va madaniy landshaftlar	2
S7	Tabiiy-hududiy va tabiiy-antropogen komplekslarni, ularning faoliyati, tuzilishi, va integratsiya qonuniyatlari, dinamikasi	2
S8	Inson hayotiy mahsulotlarning landshaftlarga kirishi natijasida moddalar va energiya aylanishining o‘zgarishi	2
S9	Landshaft-arxeologik yondashuv	2
S10	Arxeologik yodgorlik, atrof-muhit va manzara	2
S11	Landshaftlar madaniy material sifatida	2
S12	Inson va uning atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirining turli tomonlari	2
S13	Geografik Axborot Tizimi (GAT)	2
S14	Qadimiy landshaftni virtual tiklash	2
S15	O‘rta Osiyo arxeologisida landshaft-arxeologik yondashuv	2
S16	Tog‘li Ustrushona ko‘chmanchilari o‘rnashuv ekologiyasi	2
S17	Tog‘li Ustrushona ko‘chmanchilarining shaharlashuvi - “ko‘chmanchi urbanizm”	2
S18	Landshaft arxeologiyasining yutuqlari	2

V. MUSTAQIL ISH TA’LIMNI BAJARISH BO‘YICHA TALABLAR:

II semester uchun mustaqil ta’lim topshiriqlari

№	Mavzular va savollar
1.	Landshaftshunoslik fanining rivojlanish tarixi va landshaft arxeologiyasi.
2.	Landshaft tushunchasi va uning tuzilishi. Landshaftning turlari.
3.	Landshaft arxeologik meros sifatida
4.	Suv havzalarida shakllangan antropogen landshaftlar
5.	Tabiiy landshaftlar va inson aloqadorligi
6.	Antropogen landshaftlar va uning shakllanish omillari
7.	Shartli o'zgartirilmagan ibtidoiy landshaftlar
8.	Seliteb landshaftlar
9.	Belligerativ landshaftlar
10.	Shartli o'zgartirilmagan (ibtidoiy landshaftlar)
11.	Madaniy landshaftlar
12.	O'rta Osiyo hududida shakllangan antropogen landshaftlar
13.	Arxeologiya, landshaft arxeologiyasida dala tadqiqotlari va uning ahamiyati.
14.	Landshaft arxeologiyasi faning kelajagi
15.	Landshaft arxeologiyasida raqamli texnikaning o'rni
16.	Antropogen va tabiiy landshaftlar
17.	Hududlarda landshaftlarning shakllanishi
18.	Landshaftlarning turlari
19.	Antropogen landshaftlarning tasnifi
20.	O'rta Osiyo hududida shakllangan tarixiy antropogen landshaftlar
21.	Tarixiy jaroyonlar ta'sirida manzilgohlar, qishlolar, shaharlarning tashkil topishi va rivojlanishi
22.	Landshaft arxeologiyasida raqamli texnikalarning o'rni va ahamiyati.
23.	Shartli o'zgartirilmagan (ibtidoiylandshaftlar)
24.	Landshaft arxeologiyasi fani manbalari
25.	Yevropada landshaft arxeologiyasi fanining shakllanishi

	"Landshaft arxeologiyasi" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Tabiiy geografiya va uning bir qismi bo'lgan landshaftshunoslik inson yashaydigan va o'z xo'jalikdagi faoliyatini olib boradigan hududlarning tabiiy sharoitini, tabiiy komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni, o'zaro ta'sirlarni, shu jumladan, inson faoliyatining ta'sirini ham o'rganadi. Shuning uchun ham tabiat bilan jamiyat o'rtasida ro'y beradigan o'zaro aloqadorlikni tartibga solib turish, sozlab turish masalalari geografik asosda hal qilinishi lozim. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.
6.	**V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:** • Talabalar «Landshaft arxeologiyasi» fanidan asosiy bilimga ega bo'lish uchun tarixiy geologiya, ekologiya, geografiya, geoarxeologiya, antropologiya, sotsiologiya, falsafa, geofizika, informatika kabi fanlari haqida umumiy ***bilimga ega bo'lishi***; • o'tmishdagi odamlar madaniy va ijtimoiy amaliyotlarni qo'llash orqali o'z landshaftlarini qanday shakllantirganliklarini va o'z navbatida, bunday odamlarga qanday ta'sir qilganini o'rganish va izohlash analizlarini solishtirish usullarini ***bilishi kerak;*** • arxeologik ma'lumotlar sun'iy yo'ldosh va aerofotosuratlardan foydalanish, yerni o'rganish, topografik modellashtirish, stratigrafik qazishmalar, geomorfologik baholashlar, paleoetnobotanik tahlillar, makrofloristik va mikrofloristik tadqiqotlar, geofizik tadqiqot usullarini organik dunyoning o'zgarish qonuniyatlari va boshqa masalalarni ***bilishi kerak;*** • talaba landshaft arxeologiyasi usullarini qo'llash, va uning rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ***ega bo'lishi kerak.***
7.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish;
8.	**Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

9. Asosiy adabiyotlar

1. Zokirov SH.S. Landshaftshunoslik asoslari. T.: Universitet, 1994.
2. Zokirov SH.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. T.: Universitet, 1998.
3. Zokirov SH.S. Kichik hududlar tabiiy geografiyasi. T.: Universitet, 1999.
4. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическогое рaйономирование. М.: 1991.
5. Elizabeth J. Reitz. Myra Shackley. Environmental Archaeology. Springer Science+Business Media, LLC 2012.

10. Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar

1. Сочава В.Б. Введение в учение о геосистемах. -Новосибирск, 1978.
2. Арманд Д.Л. Наука о ландшафте. -М.: 1975.
3. Марсинкевич Г.И. и др. Основы ландшафтоведения. -Минск, 1986.
4. Милков Ф.Н. Ландшафтная география и вопросы практики. -М.: 1966.
5. Николаев В.А. Ландшафты азиацких степей. -М.: 1999
6. Goudie A. Physische Geograhfie. –Munxen, Westerman, 1997.
7. Gograpfie/ Physische Geograhfie/. Bonn, Cornelsen, 1989.
8. Kulke e. Wirtschafts - geograhfie. Munxen – Zurich, Ferdinand Schoningh, 2004.
9. Nigmatov A.N. Yusupov R. Tabiiy geografik komplekslar va ekzogen jarayonlar. - T.: Turon iqbol, 2006.

AXBOROT MANBALARI:

1. www.history.ru
2. www.natura.com
3. www.archeology.ru
4. www.archeology.com
5. https://uz.warbletoncouncil.org/arqueologia
   https://education.nationalgeographic.org/resource/archaeology/
   https://www.saa.org/about-archaeology/what-is-archaeology
   https://www.nps.gov/subjects/archeology/index.htm
   https://www.amnh.org/explore/ology/archaeology/what-is-archaeology
   http://www.ziyonet.uz/

11	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil "30" 08 dagi "1"- son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
12	**Fan/modul uchun mas'ullar**: A.N. Sandiboyev – SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi dotsenti.
13	**Taqrizchilar:** O.T.Ergashev – Arxeologiya kafedrasi mudiri, dotsent (ichki). M.Saidov – Madaniy meros agentligi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti dotsenti (tashqi).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Xolmatov N.O'.

Kafedra mudiri: **O.T.Ergashev**

Fakultet dekani: **D.M.Djurakulova**
Sh. Rashidov nomidagi

SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti talabalari uchun tuzilgan "Landshaft arxeologiyasi" fanining

FAN DASTURIGA

TAQRIZ

Bugungi kunda butun dunyoda arxeologiya fanining rivojlanishi insoniyatning o'tmishini o'rganish o'ta muhim fan sohalardan biri hisoblanadi. Bu shubhasiz, arxeologiya fani yangi zamonaviy texnologiyalar asosisda yangi pog'onaga chiqdi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "**Landshaft arxeologiyasi**" fani asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlarining Arxeologiya yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

Arxeologiyada **Landshaft arxeologiyasi** fanining predmeti maqsadi va vazifalari to'g'risida talabalarga umumiy tushuncha berish. Hamda ushbu bo'limda dastlabki ladshaftlarning shakllanishi, dastlabki o'rganilgan landshaftlar haqida bilim ko'nikmalarga ega bo'ladi.

O`quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Mazkur fan dasturi **"Landshaft arxeologiyasi"** fanining mazmun mohiyatini qamrab olgan, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturida **"Landshaft arxeologiyasi"** fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilagan talablar, bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisining kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan amaliy va nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Landshaft arxeologiyasi" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tanlov fan sifatida mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Madaniy meros agentligi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti direktori: Tarix fanlari nomzodi, dotsent M.M.Saidov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIY MEROS AGENTLIGI
Y.G'ULOMOV NOMIDAGI
SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI
ASLIGA TO'G'RI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti arxeologiya yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Landshaft arxeologiyasi" fani Fan dasturiga

TAQRIZ

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning tarixi va madaniyati va boy ilmiy merosimizni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, tom ma'noda bosib o'tgan yo'lini bilish lozim bo'ladi. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarix ilminining bevosita muhim qismlaridan bo'lgan arxeologiya fani va uning muhim tarkibiy qismi "Landshaft arxeologiyasi" fani ham tariximizni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Landshaft arxeologiyasi" fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa davri, qadimgi dunyo va o'rta asrlar davrlari moddiy madaniyat ashyolarini o'rganishda "Landshaft arxeologiyasi" fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rniga ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqganligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Landshaft arxeologiyasi" fanini oliy o'quv yurtlarining arxeologiya yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini o'rganayotgan talabalar va bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Mazkur Fan dasturi "Landshaft arxeologiyasi" majburiy fan bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturida "Landshaft arxeologiyasi" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

"Landshaft arxeologiyasi" fanining fan Sillabusi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
tarix fakulteti
Arxeologiya kafedrasi mudiri,
dotsent: **O.T.Ergashev**